

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

AMANBAYEVA DILSORAXON ABBAMUSLIMOVNA

**“BURCH” KONSEPTINING LEKSIKOGRAFIK TALQINI HAMDA
LINGVOKULTUROLOGIK JIHLTLARI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

Amanbayeva Dilsoraxon Abbamuslimovna

“Burch” konseptining leksikografik talqini hamda lingvokulturologik
jihatlari..... 3

Аманбаева Дилсорахон Аббамуслимовна

Лексикографическая интерпретация концепта «Долг» и его
лингвокультурологические аспекты 25

Amanbaeva Dilsoraxon Abbamuslimovna

Lexicographic interpretation of the concept "Duty" and its linguocultural
aspects..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

AMANBAYEVA DILSORAXON ABBAMUSLIMOVNA

**“BURCH” KONSEPTINING LEKSIKOGRAFIK TALQINI HAMDA
LINGVOKULTUROLOGIK JIHA TLARI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil1976 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Andijon davlat chet tillari inisituti veb-sahifasining www.adchti.uz hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalining www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rustamova Dilraboxon Abduraximovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Raupova Laylo Raximovna
filologiya fanlari doktori, professor

Abduraxmonova Madina Ulug'bekovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "____" _____ kuni soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shohko'chasi, 5-uy. Tel: 0(374) 223 42 76; faks: 0(374) 223 42 76; e-mail: info@asifl.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shohko'chasi, 5-uy. Tel: 0(374) 223 42 76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "____" _____ da _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

D.A.Rustamov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlar doktori, professor

A.Dj.Ataboyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Sh.X.Shaxabitdinovna

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida olam lisoniy manzarasida turli xil etnik qatlamlar madaniy hayot shakllarining aks etishi va mustahkamlanishi masalasini turli konseptual aspektlarda tadqiq qilish muammolari muhim ahamiyat kasb etib, antropotsentrik paradigma negizidagi zamonaviy tadqiqotlarning salmoqli hissasi ushbu masalaga qaratilgan. Jumladan, lingvomadaniy yo‘nalish til va madaniyat falsafasi tutashgan joyda til birliklarining ijtimoiy-madaniy tahlili doirasidagi istiqbolli aspektlaridan biri sifatida shakllandi. Tilda madaniy kodlarning voqelanishi nuqtai nazaridan til bir vaqtning o‘zida ham madaniyat mahsuli, ham uni hosil qiluvchi unsur sifatida uning muhim tarkibiy qismi deb qaraladi.

Dunyo tilshunosligida etnopsixomadaniy omillar ta’siri mahsuli sifatida turli millatlarning estetik qadriyatlari, ularning turmush tarzi va o‘ziga xos an’ana, urf-odatlar, dunyoqarashi, intellektual ongining olam lisoniy va milliy manzarasida ifodalanishini konseptual nuqtai nazaridan asoslash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Tilshunoslikda yetakchi paradigmaga aylangan antropotsentrik tamoyil doirasida yangi yo‘nalishlarning yuzaga kelishi konsept lisoniy xususiyatlarining tillararo funksional tadqiqi stimullaridan biri hisoblanadi. Konseptlarning obrazli tuzilishi xalqning milliy madaniyati va dunyoqarashini shakllantirishda, estetik ongi, mentaliteti, qadriyatlari, urf-odatlarini avloddan avlodga yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Ular millatning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi ko‘zgu vazifasini bajarib, madaniyatning barqarorligini ta’minlaydi.

O‘zbek tilshunosligida madaniy-estetik qadriyatlar, etnomadaniy tushunchalarning zamonaviy talqini va dunyoqarashni aks ettiruvchi milliy lisoniy konseptosferani o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda. Keyingi yillarda mamlakatimizda xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy saviyasini yuksaltirish, madaniyat va san’at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, soha vakillarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.¹ Tilning turli xalqlar hayotidagi funktsionalligi hamda lingvokognitiv, lingvokulturologik mohiyatiga, uning bilish jarayonidagi va madaniy aloqalardagi roliga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, “burch” konseptining qonuniy, diniy, oilaviy, qarindoshlik, kasbiy, do‘stona va boshqa munosabatlar kabi turli diskurslardagi ifodasini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni tahlil qilish muhimdir. “Burch” konseptining semantik, leksik va milliy-madaniy jihatlarini o‘rganish uning mazmunini ochib berishga va o‘zbek xalqining ma’naviy hayotini tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, madaniyatlararo muloqot etikasini rivojlantirish va o‘rganilayotgan konsept bilan bog‘liq lisoniy birliklarni tarjima qilish amaliyotini takomillashtirish, tarjima sohasidagi muammolarni hal qilishda ham ahamiyatlidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2012-yil

¹ O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. PQ-4038-sonli 2018-yil 28-noyabr

10-dekabdagi PQ-1875-sonli “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-sonli Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari; shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini takomillashtirish va ularni amalga oshirish yollari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Til tizimi va lisoniy birliklarni o‘rganishga lingvomadaniy yondashuv, konseptlar va ularning nazariy tadqiqiga bag‘ishlangan talqinlar xorijlik olimlardan V.fon Gumboldt, R.V.Lankager, rus olimlardan A.P.Babushkin², E.S.Kubryakova³, Z.D.Popova va I.A.Sternin⁴, birinchi navbatda, konseptning mental mohiyatini ta‘kidlaydilar. N.D.Arutyunova⁵, S.G.Vorkachev⁶, V.I.Karasik⁷, G.G.Slishkin⁸, Y.S.Stepanov⁹ kabi tadqiqotchilar lingvokultural yondashuv asosida konseptni aniqlashda etnomadaniy shartlilik muhimligiga urg‘u berishadi. Tilshunoslikda “konsept” atamasi dastlab S.A.Askoldov¹⁰, A.Vejbitskaya¹¹, R.U.Langakker¹², Y.S.Stepanov¹³, R.M.Frumkina¹⁴, Z.D.Popova¹⁵, I.A.Sternin¹⁶, V.A.Maslova¹⁷, K.Z.Zulpukarov¹⁸,

² Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. – Воронеж, 1996. – 281 с.

³ Кубрякова Е.С. Роль словообразования в формировании картины мира // Роль человеческого фактора в языке. Язык и картина мира. – М.: Наука, 1988. – 141 с.

⁴ Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие концепта в лингвистических исследованиях / З.Д. Попова, И.А.Стернин. – Воронеж, 1999. – 30 с.

⁵ Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка, событие, факт. – М., 1988. – 339 с.

⁶ Воркачев С.Г. Счастье как лингвокультурный концепт / С.Г. Воркачев. – М.: ИТДГК «Гнозис», 2004. – 192 с.

⁷ Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс / В. И. Карасик. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.

⁸ Слышкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе / Г.Г.Слышкин. – М.: Academia, 2000. – 128 с.

⁹ Степанов Ю.С. Концепт.//Степанов Ю.С. Константы:Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1997.– 824 с.

¹⁰ Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М., 1997. – С. 260-267.

¹¹ Вежицкая А. Язык. Культура. Познание. – М., 1996. – 416 с.

¹² Лангаккер Р.У. Когнитивная грамматика. – М., 1992. – 88 с.

¹³ Степанов Ю.С. Концепт.//Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1997. – 824 с.– С. 40-46.

¹⁴ Фрумкина Р.М. Концептуальный анализ с точки зрения лингвиста и психолога // Научно-техническая информация. – 1992. Сер. 2. – №3. – С. 3-9.

¹⁵ Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях. – Воронеж, 1999. – 211 с.

¹⁶ Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. Золотая серия. – М.: АСТ: Восток-Запад, 2010. – 314 с.

¹⁷ Маслова Ю.С. Избранные труды. Аспектология. Общее языкознание. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 848 с.

¹⁸ Зулпукаров К.З. Падежная грамматика: теория и прагматика. – Санкт-Петербург, 1994. – 317 с.

Z.K.Derbishova¹⁹ kabi olimlar tomonidan qo'llanilgan. Rus leksikografik manbalariga ko'ra konseptlarni o'rganishning asoschilari Y.S.Stepanov²⁰, N.F.Alefirenko²¹, Z.D.Popova va I.A.Sterninlar²² hisoblanadi. Ular izohli lug'atlar materialidan foydalangan holda rus tili madaniyatining asosiy konseptlarini tahlil qildilar.

O'zbek tilshunosligida konsept borasida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan, xususan, til va madaniyatning o'zaro aloqasiga bag'ishlangan ish olib borgan quyidagi tilshunoslarning nomlarini tilga olish mumkin: G.SH.Ataxanova, D.U.Ashurova, T.A.Bushuy, A.E.Mamatov, N.Z.Nasrullayeva, M.I.Rasulova, G'.X.Rahimov, SH.S.Safarov, I.M.To'xtasinov, G'.M.Xoshimov, SH.Usmanova, U.K.Yusupov va boshqa²³ lar.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Andijon davlat universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining "Filologiyaning dolzarb muammolari va ularni amaliyotga joriy etishning yangi texnologiyalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi "burch" konseptining leksikografik talqini hamda lingvokulturologik jihatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"burch" konseptining ma'naviy-axloqiy tabiati va lisoniy ob'yektivlashuvi kognitiv va lingvomadaniy tadqiqining nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilish;

"burch"konseptosferasiga oid til birliklarining leksik-semantik va grammatik-sintaktik xususiyatlarini tadqiq qilish;

turli tillardagi izohli lug'atlar asosida "burch" konseptiga oid tushunchalarning leksikografik-semantik maydonini yaratish hamda ifoda birliklarining statistik miqdorini aniqlash;

"burch" konseptosferasiga oid til birliklarining leksikografik hamda etimologik tavsifini yoritish, parema, frazema va boshqa semantik butunliklar asosida tahlil qilish;

"burch" konseptosferasiga oid tushunchalar tasnifi va ularning funksional jihatlarini asoslash;

turli diskurslarda "burch" konsepti orqali lisonda namoyon bo'luvchi etnik milliy -madaniy qadriyatlar talqinining o'ziga hos xususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyektini "burch" konseptini ifodalovchi til birliklari qatnashgan manbalar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini "burch" konseptini lisonda ifodalovchi leksik-semantik, grammatik-sintaktik vositalarning leksikografik va lingvomadaniy jihatlarini tashkil etadi.

¹⁹ Дербишова З.К. Ключевые концепты кыргызской лингвокультуры. – Бишкек, 2012. – 176 с.

²⁰ Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования [Текст] / Ю. С. Степанов. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1997. – 824 с.

²¹ Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. – М.: Флинта: Наука, 2010. – 214 с.

²² Попова З. Д., Стернин И. А. Очерки по когнитивной лингвистике. – Воронеж: Истоки, 2001. – 189 с.

²³ Юсупов У.К. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультуреда атамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида: Илмий-амалий конференция материаллари. –Тошкент, 2011. – Б. 49.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda definitsion, kontekstual, leksikografik, lingvomadaniy, lingvostatistik tahlil, interpretatsiya usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“burch” konseptining semantik doirasida leksik vositalarning denotativ, konnotativ variantlari tahlili asosida o‘zbek va rus tillarida ijtimoiy-ma’naviy munosabatlar (shaxslararo aloqalar va Vatan tuyg‘usi) bilan chegaralanganligi, ingliz va fransuz tillarida esa utilitar munosabatlar (davlat va professional burchlar) ustunlik qilishi aniqlangan;

“burch” konseptiga oid grammatik vositalarning konstruktiv shakllanish (birikma, qo‘shilma, butunlik, tizma) jarayonlarida milliy va madaniy o‘ziga xoslik ko‘lami dalillangan hamda leksikografik va etimologik tavsifi shakllantirilgan;

o‘zbek, ingliz, rus, nemis, fransuz tili izohli lug‘atlari asosida “burch” konseptiga oid tushunchalarning leksikografik talqinidagi semantik maydonining ifoda birliklari yaratilib, statistik miqdori aniqlangan (ingliz tilida 2.909 ta, o‘zbek tilida 1.072 ta, rus tilida 420 ta h.k.);

“burch” konseptining majburiyat ekanligi bilan birga ijobiy aksiologik baho tufayli milliy qadriyat sifatidagi tabiati, shuningdek, burch negizida oilaviy munosabatlar, erkak va ayolning vazifalari, farzandning burchi kabi lingvokulturologik jihatlari maishiy, badiiy, rasmiy va diniy diskurslar kesimida dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

oliy ta’lim muassasalarida umumiy, qiyosiy, ingliz va o‘zbek tilshunosligi, kognitiv, lingvomadaniy tilshunoslik bo‘yicha o‘quv, uslubiy qo‘llanma, darsliklar yaratish hamda ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda xizmat qiladigan empirik materiallar to‘plangan;

“burch” konseptining leksik-semantik, grammatik-sintaktik va funksional verbalizatorlarining konseptual maydon tuzilmasi shakllantirilgan;

“burch” konseptining lingvokognitiv va lingvomadaniy xususiyatlari turli diskurslar kesimida ilmiy-nazariy jihatdan asoslanib, leksikografik va etimologik tavsifi shakllantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi xalqaro va respublika miqyosdagi ilmiy-uslubiy va ilmiy-amaliy konferensiyalarda qilingan ma’ruzalar, OAK ro‘yxatidagi maxsus jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalar, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “burch” konseptini ifodalovchi leksik-semantik va grammatik-sintaktik vositalarning umumiy va xususiy jihatlari tahliliga oid nazariy xulosalardan sistem-struktur, kognitiv, tipologik tilshunoslik, leksikografiya, lingvokulturologiya sohalariga oid ishlarda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan tarjima nazariyasi, kognitiv tilshunoslik, ingliz tili fanlaridan o‘quv qo‘llanma yaratishda, tarjimonlarning kasbiy va amaliy faoliyatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Burch” konseptining leksikografik talqini hamda lingvokulturologik jihatlari yuzasidan olingan natijalar asosida:

“burch” konseptining semantik doirasida leksik vositalarning denotativ, konnotativ variantlari tahlili asosida o‘zbek va rus tillarida ijtimoiy-ma’naviy munosabatlar (shaxslararo aloqalar va Vatan tuyg‘usi) bilan chegaralanganligi, ingliz va fransuz tillarida esa utilitar munosabatlar (davlat va professional burchlar) ustunligiga oid ma’lumotlar va ilmiy-nazariy xulosalardan Andijon davlat universitetida bajarilgan “№ IL-402104213. O‘zbek tilida elektron lingvistik entsiklopedik lug‘at ishlab chiqish” davlat innovatsion-tadqiqot dasturlari doirasidagi loyihada foydalanilgan. Shuningdek, mazkur loyihada “burch” konseptiga oid grammatik vositalarning konstruktiv shakllanish (birikma, qo‘shilma, butunlik, tizma) jarayonlarida milliy va madaniy o‘ziga xoslik ko‘lami dalillanib leksikografik va etimologik tavsifi shakllantirilgan (Andijon davlat universitetining 2024-yil 17-sentyabrdagi 01-1833-son ma’lumotnomasi). Natijada konseptlar tavsifida qo‘llaniluvchi ayrim birliklarning o‘ziga xosliklari ochib berilgan;

o‘zbek, ingliz, rus, nemis, fransuz tili izohli lug‘atlari asosida “burch” konseptiga oid tushunchalarning leksikografik talqinidagi semantik ifoda birliklari yaratilib, statistik miqdori aniqlanishiga doir natijalari va nazariy xulosalaridan Andijon davlat universitetida bajarilgan “OT-F1-18. Ommaviy lisoniy madaniyatni shakllantirish metodlari va metodologiyasini ishlab chiqish” davlat fundamental-tadqiqot dasturlari doirasidagi loyihada foydalanilgan (Andijon davlat universitetining 2024-yil 18-sentyabrdagi 01-1845-son ma’lumotnomasi). Natijada lisoniy madaniyatni ta’minlashga oid metodologiya yangi nazariy qarashlar bilan boyitilgan;

“burch” konseptining majburiyat ekanligi bilan birga ijobiy aksiologik baho tufayli milliy qadriyat sifatidagi tabiati, shuningdek, burch negizida oilaviy munosabatlar, erkak va ayolning vazifalari, farzandning burchi kabi lingvokulturologik jihatlari maishiy, badiiy, rasmiy va diniy diskurslar kesimida dalillanganligiga doir tahliliy fikrlar va ma’lumotlardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” DM “Madaniy-ma’rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyati tomonidan tayyorlangan “Ta’lim va taraqqiyot”, “Adabiy jarayon”, “O‘zbekiston yoshlari” nomli dasturlar senariysining 2024-yil may va avgust oylaridagi sonlarida sharh va reportajlar tayyorlash jarayonida manba sifatida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2024-yil 09-sentyabrdagi 04-36-1002-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, mazkur teleradio-eshittirishlarning ilmiy ta’minoti amaliy jihatdan boyitilib, dasturlarning sotsiomadaniy ahamiyati sezilarli darajada ortgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 18 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan 5 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 172 sahifadan iborat.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, shuningdek tadqiqotning obyekt va predmeti shakllantirilgan, tadqiqot ishining O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiliklar va tadqiqotning amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini joriy qilish, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Ishning birinchi bobi **“Olamning lisoniy manzarasida lingvokulturologik konseptning nazariy asoslari”** deb nomlanib quyidagi qismlardan iborat: “Tilshunoslikda antropotsentrik yondashuv: kognitiv paradigmaning yo'nalishlari”, “Konsept olamning lisoniy manzarasi asosi sifatida”, “Burch” lingvomadaniy konseptining ma'naviy-axloqiy tabiati va tadqiq masalalari”.

So'nggi yillarda jahon miqyosida yuz berayotgan globallashuv, integratsiya va davr shiddati insonning ijtimoiy-ma'naviy hayotida muhim o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Inson omilining ahamiyati kuchaygani ilm-fanning barcha yo'nalishlari, jumladan, tilshunoslik sohasida ham o'z ifodasini topdi. Buning natijasida lingvistik tadqiqotlarda “olam va odam konsepti” tushunchasi faollashdi. O'z navbatida, “konsept” tushunchasi ham hozirgi zamon tilshunoslik metodlari orqali yangicha mohiyat-e'tibor kasb etdi va mutaxassislarining diqqat markazidagi masalalardan biriga aylandi. Umumiy va nazariy tilshunoslik asoschisi V.Fon Gumboldt tilni 1) mohiyatiga ko'ra ruhiy faoliyat, ruhiy quvvat; 2) tuzilishiga ko'ra butunlik, tizim (sistema); 3) vazifasiga ko'ra ijtimoiy hodisa sifatida belgiladi²⁴ va shu asoslarda hozirgi zamon tilshunosligi turli yo'nalishlarga ega bo'ldi. Antropotsentrik paradigma asosida inson omilining markaziy planga qo'yilishi tilshunoslikni yangi o'zanga solib yubordi va lisoniy faoliyat, lingvistik hodisalarni inson, uning dunyoqarashi va ongi (*bilim – tafakkur, ong, aql, zakovat, fahm, farosat, idrok, fikr, tasavvur, tushuncha, xotira, reja, zehn, fasohat, zakiylik, his-tuyg'u.*)ga eng yaqin munosabatda – konseptuallikda ko'rib chiqishni taqozo qila boshladi. Voqelikni konseptualashtirish va turkumlashtirish jarayonlarining zamonaviy tilshunoslik tarmoqlari konseptning tabiati, voqelantirish usullari faol o'rganilishiga qaramay, hozirgi vaqtda konsept muammosini hal qilishda yagona yondashuv mavjud emas. Konseptning tuzilishi, uni modellashtirish imkoniyati, konsept va uning ifoda vositalari o'rtasidagi munosabat, tushuncha va uni obyektivlashtiruvchi til birliklarining ma'no munosabati haqidagi savollar ham o'z javobini kutmoqda.

Antropotsentrik yondashuv tilda inson omilining namoyon bo'lishini til egasining dunyoqarashi va ongdagi olam lisoniy manzarasi orqali lingvistik faktlar, hodisalarni tadqiq etadi. Olamning lisoniy manzarasi insoniyatning ijtimoiy xotirasi, tajribasi va tasavvurlarini aks ettirib, turli konseptlar orqali olam haqidagi bilimlarni saqlaydi.

²⁴ Зикриллаев Ф. Рух ва тил. – Тошкент, 2018. – Б. 5.

Shu tariqa, inson olamning lisoniy manzarasida markaziy o‘rinni egallaydi. Ijtimoiy xotira va insoniyat tajribasi olamning lisoniy manzarasida aks etishi, unda insonning til vositasida o‘zini individ sifatida modellashtirishi inson ongida o‘zgarish yasashi orqali yuz beradi. Bu esa, o‘z navbatida, tilshunoslikda antropotsentriзмning ontologik mohiyatini belgilaydi. Ushbu muammo bo‘yicha fikrlarni O‘.Yusupov, D.Ashurova, A.Abduazizov, Sh.Safarov, M.Djusupov, A.Mamatov kabi bir qator o‘zbek olimlarining ishlarida ham kuzatishimiz mumkin. Konsept inson dunyoqarashining tildagi intellektual, emotsional, baholovchi va obrazli mahsuli sifatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ong mexanizmi bilan bog‘liq munosabatda bo‘ladi. Konseptning mazmuni bir umumiy ma‘no bilan birlashgan leksik birliklar orqali ifodalanadi va ular leksik-semantik maydonni tashkil etadi. Ma‘lumki, til bu bizga meros bo‘lib qoladigan madaniyatning dalili hamda uning bir qismidir. Darhaqiqat, xalqning madaniyati, dastlab, uning tilida aks etadi, aynan tildagi mazkur madaniyatning sirli qirralari so‘zlar orqali ochib beriladi. Til o‘z semantikasida olam va insonning unga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi²⁵.

A.A.Abduazizovning ta’kidlashicha, “Semantik yoki tushuncha maydoni” orqali ma’nolari bilan bog‘langan so‘zlar birlashadi, bunday so‘zlar, odatda, bir leksik-semantik guruhni tashkil etadi²⁶. Lingvomadaniy konsept masalasiga alohida e’tibor qaratilishi gumanitar bilimlar sohasida antropotsentrik paradigmaning shakllanishi tomon tashlangan qonuniy va muhim qadam sifatida baholanadi. Konseptda, asosan, shaxssiz va obyektivistik tushuncha tilda milliy-madaniy muqobil asosda, tabiiy til semantik sistemasida mustahkamlangan asl ma‘no (etnosemantik) shaxsga nisbatan ma’qullanadi. Olam manzarasini lisoniy jihatdan tadqiq etish masalasi, boshqacha aytganda, olamning konseptual tasviri aks etishini yoki olamning lisoniy obrazini tadqiq qilish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Y.S.Kubryakova R.Z.Djekendorfning fikriga qo‘shilib konsept – inson tafakkuridagi olam manzarasining tilda aks etishi, degan g‘oyani ilgari suradi. N.D.Arutyunovanning fikriga ko‘ra, “konseptlar inson va olam o‘rtasida vositachi bo‘lib xizmat qiluvchi ma‘lum bir madaniy qatlamni tashkil etadi”²⁷.

“Konsept” atamasi tilshunoslikda eski va shu bilan birga yangi tushuncha bo‘lib, u S.A.Askoldovning 1928-yilda yozilgan “Концепт и слово” (“Konsept va so‘z”) nomli maqolasida ko‘proq so‘zga bog‘langan. XX asrning o‘rtalariga kelib esa “konsept” tilshunoslikda atama sifatida qo‘llanila boshladi. Hozirgi kunda tilshunoslikda “konsept” atamasiga kognitiv va lingvomadaniy jihatdan yondashiladi.

O‘zbek tilshunosligida ham “konsept” tushunchasi turli talqinga ega. Masalan, Sh.Safarov “moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet – hodisalar haqida tushunchaning tug‘ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namuna – konsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishi”ni takidlaydi Olimning tavsifiga ko‘ra, kognitiv tilshunoslik tilni umumiy kognitiv mexanizm sifatida o‘rganuvchi sohadir. “Kognitiv tilshunoslikning vazifasi til yordamida bilim olish va saqlash,

²⁵Samigova X.B. Ingliz va o‘zbek tillarida *erkalash* funksional-semantik maydoni: Filol. fan nomz. ...diss. – Toshkent, 2010. – B. 13-17.

²⁶ Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. 2-nashr. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 5-69.

²⁷ Арутюнова Н. Д. Язык и мир человека, 3-е изд. – М.: Язык и русская культура, 1998. – С. 3.

tilni amalda qo‘llash hamda uzatish, umuman, til tizimi va tarkibini inson miyasidagi in’ikosi sifatida tafakkur bilan bog‘lab, chuqur ilmiy tadqiq etishdir”.²⁸.

Olam manzarasini lisoniy jihatdan tadqiq etish masalasi, boshqacha aytganda, olamning konseptual tasviri aks etishini yoki olamning lisoniy obrazini tadqiq qilish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Yuqoridagi fikrlarga qo‘shilgan holda konsept – inson tafakkuridagi olam manzarasining tilda aks etishi, inson va olam o‘rtasida vositachi bo‘lib xizmat qiluvchi, olamning lisoniy manzarasi substrati, ratsional umumlashtirish natijasini tashkil etadi deb hisoblaymiz. Kategoriyalashtirish inson ongidagi konseptlarni turli mazmuniy uyalarga ajratish, tasniflash jarayoni hisoblanadi. Ular o‘rtasidagi farqni quyidagicha talqin qilish mumkin: konseptualashtirish umumlashtirish harakatida bo‘lsa, kategoriyalashtirish ajratish harakatida bo‘ladi: muhim belgilarni ajratib, ular orasidagi o‘xshashlik, yaqinlikni qidiradi, natijada konseptlar ma’lum bir guruhlariga birlashtiriladi.

Burch so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha izohlangan:

Burch – ado etilishi, bajarilishi majburiy bo‘lgan vazifa, majburiyat. Vatanparvarlik burchi. Vijdon burchi. Xizmat burchi. Harbiy burch... Onalik – xotin-qizlarning eng muqaddas burchi. Yerli xalq tilini bilish o‘sha yashash joyini in’om etgan xalqqa nisbatan insoniy burch va hurmat hamdir²⁹.

Burch leksemasi *majburiyat, mas’uliyat, vazifa, javobgarlik, talab, qarz, milliylik, gender, sadoqat, omonat (sir), vafo, sodiqlik, do‘stlik, hurmat, ehtirom, izzat, qadr* kabi bir semantik maydonda birlashuvchi semalarni o‘zida mujassam etgan tilning leksik birligi, semantik konsept hisoblanadi. Denotativ ma’no – so‘zning asosiy, betaraf ma’nosi, konnotativ ma’no – denotativ ma’no ustiga qo‘shiladigan, ijobiy yoki salbiy tuyg‘ularni ifodalovchi ma’nodir. Masalan, burch” so‘zining denotativ ma’nosi – bajarilishi shart bo‘lgan vazifa (masalan, harbiy burch). “*Yerli xalq tilini bilish – o‘sha xalqqa nisbatan insoniy burchdir*” jumlasidagi “burch” so‘zi konnotativ ma’noda, ya’ni hissiyotli va individual ma’noda kelgan.

Burch konsepti *vijdon, yaxshilik, baxt, halollik* kabi boshqa axloqiy tushunchalar bilan bog‘liq. Jamiyatning rivojlanishi, ma’naviy, axloqiy yuksalishi bilan vijdon tushunchasining mazmuni va mohiyati boyib boradi. Uning mohiyati ijtimoiy muhit bilan belgilanadi. Vijdon erkinligi tushunchasi vijdon tushunchasining muayyan qismini tashkil etadi. Ijtimoiy va shaxsiy burch, *oilada ota-onalik burchi, farzandlik burchi* va boshqa burchlar bor, ular sirasiga *fuqarolik burchi* ham kiradi.

Burch qanday vazifa, kimning oldidagi majburiyat ekanligiga qarab turlicha bo‘lishi haqida yuqorida fikr yuritdik (*milliy burch, ijtimoiy burch, umuminsoniy burch* va boshqalar). Ijtimoiy va shaxsiy burch, *oilada ota-onalik burchi, farzandlik burchi* va boshqa burchlar bor.

Burch nisbiy tushuncha. U ijtimoiy taraqqiyot jarayonida mazmunan boyib, shaklan o‘zgarib boradi. Hozirgi sharoitda insonning tabiat va avlodlar oldidagi burchi yangicha mazmun kasb etmoqda. Oilaviy burch esa jamiyat oldida turgan

²⁸ Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – B.91.

²⁹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A. Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent, 2005-2008. “B” h. – B. 384.

maqsadlar bilan yanada uyg'unlashmoqda. Ona Vatanga, xalqqa xizmat qilish eng ulug' va sharaflı burch hisoblanadi.

Burch - axloqiy tushuncha sifatida esa, u kishi zimmasiga *vazifa* belgilovchi tuyg'u xisoblanadi. insoniy va ijtimoiy sifatlarni mujassam etishi bilan shaxsning axloqiy ongida "o'zini anglash" tushunchasini hosil qiladi. Jamiyatimiz "fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdirlar".³⁰

U aynan axloqiy jihatdan shaxsda besh xususiyatni tarkib toptiradi:

shaxsning o'z-o'zini anglashi;

shaxsning o'zgalar manfaatini himoya qilishi;

shaxsning o'z jamiyatini muhofaza qilishi;

shaxsning davlat xizmatida bo'lishi;

shaxsning umuminsoniy qadriyatlarini hurmat qilishi.

Burch shaxsni axloqiy jihatdan o'z insoniy vazifasini qat'iy bajarish ruhida voyaga yetkazadi. Qadimgi hind falsafasida qayd etiladi: "Senga baxt keltiradimi yoki baxtsizlik keltiradimi – burchingni ado et. Kim o'z burchini ado etsa va uning natijasida keladigan oqibatlarni xotirjam qarshi olsa, u qalban yuksakdir".³¹

Burch - insoniy vazifaning majmui. Insonlik vazifasini bajarishda shaxsiy manfaat tuyg'usi cheklanadi, burchni bajarish natijasida keladigan har qanday oqibatdan qoniqish hosil qilinadi. Demak, bugungi kunda shaxs o'zini anglashi bilan o'zining kim ekanligini, kimlarning ajdodlari ekanligini va ularga munosib bo'lish lozimligini biladi. Jamiyatimizda o'zini anglagan shaxs oilasi, xalqi, jamiyat va davlat oldidagi vazifalarini biladi va sidqidildan ado etadi.

BK ikkiga – asliy burch(AB) va nisbiy burch(NB)ga ajraladi. Asliy burch ado qilinishi shart va qat'iy bo'lgan birlamchi insoniy va ijtimoiy barqaror tuyg'u, o'zida cheksiz xossa va xususiyatlarni umumlashtirgan butunlik, sistema hisoblanadi. Asliy burchlar to'rtga bo'linadi:

1. Odamiy burch (OB).

2. Ijtimoiy burch (IB).

3. Milliy burch (MB).

4. Diniy burch (DB).

Nisbiy burch asliy burchning tarkibida bo'lib, asliy burchning fazilatli va afzal bajarilishini ta'minlash uchun xizmat qiluvchi zarurat hisoblanadi. Odamiy burchning tarkibida cheksiz xossa va xususiyatlarni umumlashtirgan *erkaklik burchi* mavjud, erkaklik burchining afzal bajarilishining bir jihati o'zidan kuchsiz, ojiza ayollarga nisbiy yordam ko'rsatishi bilan ifodalanadi. Odamiy burchning tarkibida *ayollik burchi* mavjud, uyni ozoda tutish, eriga xushmuomala bo'lish va shu kabilar ayolning nisbiy burchi hisoblanadi. Nisbiy burchga majburiyat, mas'uliyat, zarurat, vazifa, javobgarlik, talab, qarz, oila, musulmonchilik, qarindoshchilik, nikoh, gender, sadoqat, vafo, do'stlik, hurmat, izzat, qadr va shu kabi asliy burchning realizatsiya elementlari kiradi.

Shunday qilib, "*burch*" konseptining assotsiativ maydoniga mas'uliyat, majburiyat, vijdon, hurmat, iftixor, ta'zim, qarz, farz, vojib, axloq fidokorlik vazifa

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.-T.: O'zbekiston. 2010. 19-modda. B.7

³¹ Serjilo tafakkur durdonalaridan. -T.: Navro'z. 2003. -B. 11.

kabilar kiradi. Bu tushunchalar chambarchas bog‘liq bo‘lib, burch bizdan biror amalni talab qiladi. Shu bilan birga, u lingvomadaniyatlararo xususiy ma’nolarga ham ega.



“Burch” konsepti “*burch*” va “*majburiyat*” tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq va axloqiy harakatni “zarur” deb baholaydi. O‘z burchini bajarish axloqiy qonunga muvofiq harakat qilishdir. Bu shuni anglatadiki, axloqiy burch talablari shaxsiy manfaat talablariga zid bo‘lishi mumkin. Shaxsning shaxsiy manfaatlari uning yolg‘on gapirishini talab qilishi mumkin, lekin haqiqatni gapirish uning burchidir. Bunday sharoitda, vazifa odamga qilmoqchi bo‘lgan narsasiga bog‘liq bo‘lmagan harakatga cheklov sifatida yuklanadi.

Ishning ikkinchi bobi “**Burch**” konseptining leksikografik talqini va struktur-semantik tahlili” deb nomlanadi va quyidagi qismlardan iborat: “Burch” konseptining leksikografik va etimologik tavsifi”, “Burch” konseptini lisona voqealantiruvchi leksik vositalar tahlili”, “Burch” konseptini lisona voqealantiruvchi grammatik vositalar tahlili”.

Har bir milliy til va madaniyat o‘ziga xos xususiyatlari bilan boshqalaridan farqlanishi tabiiy. Xossatan, ingliz va o‘zbek tili madaniyatining ham o‘ziga xos va umumiy tomonlari mavjud. Ma’lum bir millatga xos milliy konseptosferani o‘rganish jarayonida uning o‘ziga xosligi va universalialariga e’tibor qaratish lozim. Milliy dunyoqarashni o‘rganishda asosiy usullardan biri ma’lum bir konseptning ichki tuzilishini tahlil qilishdan iborat. Bunday usul shu millatning tafakkurida biror konseptning aks etishi, uning millat hayotida tutgan o‘rni xususida xulosa chiqarishga ko‘maklashadi.

“**Burch**” konsepti periferiyasi, unga bo‘lgan munosabat ifodasini o‘zbek adabiyoti matnlarida kuzatish mumkin:

Balqimoq, yashnamoq, porlamoq. Yana deng, bolaginam allaqayoqlarda xizmat qilib yuribdi, bir kuni *burchini* ado etib, eshikdan quyoshday balqib kirib keladi (J. Abdullaxonov. Tarki dunyo).

Katta. Asosan, odam yuragining botirligi, qoʻrqmasligi, baquvvatligining mubolagʻali ifodasi uchun, shuningdek, odatdagidan katta qulfga nisbatan; baʼzan boshqa ayrim narsalar kattaligining mubolagʻali ifodasi uchun ham qoʻllanadi. Otning kallasidek plan qoʻyib qoʻygan, bajarishga *majburmiz*. (T.Malik)

Ishlamoq, ishlatmoq vazifasini bajarmoq. Oʻzini ayamay qattiq mehnat qilmoq, ana shunday ishlashga majbur qilmoq. Qildirmagan ishi qolmadi. Uchastka qurdi. Eshakdek *ishladim* (Oʻ.Xoshimov). Domlasi ham shuning uchun uning burnini ishqab, oʻz foydasiga eshakday *ishlatadi* (Oʻ.Xoshimov). Oʻ, senga oʻxshaganlardan direktor chiqmasin Sobirni eshakday *ishlatasan*, Avvalboyga... choy tashitasan!..(A.Aʼzam).

“**Burch**” konsepti va uning konseptosferasi birliklari zamonaviy oʻzbek tili leksikografik manbalarda quyidagicha izohlangan:

Burch – majburiyat, masʼuliyat.

Masʼuliyat – yaqinlar, jamoat yoki jamiyat oldidagi burch, vazifa.

Majburiyat – ichki ehtiyoj, qonun yoki kelishuvga koʻra bajarilishi shart boʻlgan ish.

Vazifa – topshiriq, belgilab qoʻyilgan ish.

Sadoqat – vaʼdalarni va majburiyatlarni sidqidildan bajarish.

Hurmat – ijtimoiy munosabatlarda boshqalarga nisbatan koʻrsatiladigan ehtirom.

“**Burch**” va uning maʼnodosh birliklari zamonaviy ingliz tili lugʻatlarida quyidagicha izohlanadi:

duty – something that you have to do because it is morally or legally right.

Responsibility – a duty or task that you are required or expected to do.

Obligation – something that you must do because of a law, rule, promise, etc.

Task – a piece of work to be done or undertaken.

Loyalty – the quality of being loyal to someone or something.

Respect – a feeling of deep admiration for someone or something elicited by their abilities, qualities, or achievements.

“**Burch**” konseptual maydonining leksik verbalizatsiyasi

Oʻzbek tilida yadro birliklar:

Burch

Majburiyat

Masʼuliyat

Yaqin periferik birliklar:

Vazifa

Sadoqat

Hurmat

Uzoq periferik birliklar:

Mehnat

Qarz

Himoya

Ingliz tilida yadro birliklar:

Duty

Responsibility

Obligation

Yaqin periferik birliklar:

Task
Loyalty
Respect

Uzoq periferik birliklar:

Work
Debt
Protection

“Burch” konseptosferasiga oid tushunchalarning izohlari

O‘zbek tilida:

Burch: majburiyat, mas’uliyat, vazifa

Majburiyat: majburiyatli, burchli, mas’uliyatli

Mas’uliyat: mas’uliyatlilik

Vazifa: topshiriq, ish, amal

Sadoqat: vafo, sadoqatlilik, vafodorlik

Hurmat: ehtirom, qadrlash, qadr-qimmat

Ingliz tilida:

Duty: responsibility, obligation, task

Responsibility: accountability, liability, charge

Obligation: requirement, commitment, duty

Task: assignment, job, chore

Loyalty: allegiance, fidelity, faithfulness

Respect: esteem, admiration, regard

Tadqiqotdan kelib chiqadiki, “burch” konsepti ikki tilda ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek va ingliz tillarida burch konseptining ifoda vositalari semantik jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lib, lekin kontekst va funksional aspektlarda muayyan farqlarga ega. Bu farqlar har bir tilning madaniy va ijtimoiy muhitiga bog‘liq bo‘lib, ularning turlicha tasvir va ifodalash uslublarini aniqlashga yordam beradi.

Jadvalda “**burch**” konseptining ingliz va o‘zbek tillaridagi leksik-semantik, freym, slot, geshtalt va skript kabi jihatlarini qiyosiy tahlil qilamiz.

1-jadval

“Burch” konseptining lingvistik maydon tahlili

Mazmun	O‘zbek tili	Ingliz tili	Izoh
Yadro birliklar	burch, majburiyat, mas’uliyat	duty, responsibility, obligation	Har ikki tilda ham “burch” konseptining asosiy, markaziy ma’nodoshlari.
Yaqin periferik birliklar	vazifa, sadoqat, hurmat	task, loyalty, respect	Ikkinchi darajali birliklar, markaziy tushunchalarga yaqin ma’noda.
Uzoq periferik birliklar	mehnat, qarz, himoya	work, debt, protection	Asosiy tushunchalardan uzoqroq bo‘lgan, biroq burch konsepti bilan bog‘liq birliklar.

“Burch” konseptining freym elementlari

Freym elementlari	O‘zbek tili	Ingliz tili	Izoh
Asosiy konsept	Burch	Duty	Asosiy konsept
Majburiyat	Qonun yoki kelishuvga ko‘ra bajarilishi shart bo‘lgan ish	Something that you have to do because of a law, rule	Huquqiy va ijtimoiy majburiyatlar
Mas’uliyat	Yaqinlar, jamoat yoki jamiyat oldidagi vazifa	A duty or task that you are required or expected to do	Shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyatlar
Sadoqat	Va’dalarni va majburiyatlarni sidqidildan bajarish	The quality of being loyal to someone or something	Sadoqat va vafodorlik
Hurmat	Ijtimoiy munosabatlarda boshqalarga nisbatan ehtirom	A feeling of deep admiration for someone or something	Hurmat va qadrlash

“Burch” konseptining slot elementlari

Slotlar	O‘zbek tili	Ingliz tili	Izoh
Majburiyat	majburiyatli, burchli, mas’uliyatli	obligatory, responsible, accountable	Ikkala tilda ham burch bilan bog‘liq sifatlar
Mas’uliyat	mas’uliyatlilik, mas’uliyatsizlik	responsibility, irresponsibility	Shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyatlarni ifoda etuvchi sifatlar
Vazifa	topshiriq, ish, amal	task, job, assignment	Konkret ish yoki vazifalarni ifoda etuvchi birliklar
Sadoqat	vafo, sadoqatlilik, vafodorlik	loyalty, fidelity, allegiance	Sadoqat va vafodorlikni ifoda etuvchi birliklar
Hurmat	ehtirom, qadrlash, qadr-qimmat	respect, esteem, admiration	Hurmat va qadrlashni ifoda etuvchi birliklar

Ingliz-rus lug‘atlarida. “Англо-русский словарь общей лексики” lug‘atida *burch* tushunchasi quyida berilgan ikki lug‘atda ko‘rishimiz mumkin:

1. “Англо-русский словарь общей лексики” lug‘atida **burch** tushunchasi quyidagicha berilgan:

1. Duty - сущ. 1) почтение, уважение, повиновение. Burch - *hurmat, itoatkorlik*.

2. Excise duty - акцизный сбор (сбор или налог, которым облагаются определенные товары). Aksiz solig‘i (ayrim tovarlardan olinadigan yig‘im yoki soliq).

3) Duty - долг, обязательство - *burch, majburiyat*, civic duties - гражданские обязательства - *fuqarolik burchi*, ethical duty, moral duty – моральный долг -

axloqiy burch; patriotic duties – долг перед родиной - *vatan oldidigi burch*, sense of duty – чувство долга - *burch hissi, burchli, o‘z burchini ado etmoq*.

4) Official duties - служебные обязанности - *ish majburiyatlari*, при исполнении служебных обязанностей - *navbatchi xizmat vazifalari*, doctor on duty – дежурный врач - *navbatchining vazifalari*, on duty – на дежурстве - *navbatchi o‘z vazifalarini bajarishi*.

5) duty in a neighboring parish - церк. служба - *cherkov xizmati*.

2. M.N.Kozireva, I.V.Fyodorova “Inglizcha-ruscha o‘quv lug‘ati”da **burchning majburiyat** tushunchasi bilan sinonim sifatida ishlatilishiga guvoh bo‘ldik, ya’ni:

Obligation – *shaxsning axloqiy yoki yuridik jihatdan bog‘liq bo‘lgan majburiyatlari*

legal obligation – *xuquqiy majburiyat*

moral obligation – *axloqiy majburiyat*

social obligation – *ijtimoiy majburiyat*

family obligations – *oilaviy majburiyat*

obligation to one’s parents – *ota ona oldidagi majburiyatlar*

to feel an obligation – *majburiyatni his qilish*

to discharge / fulfil / meet an obligation – *majburiyatni ado etmoq*

military obligation – *harbiy majburiyat*

breach of an obligation *majburiyatni buzilishi*

Inson o‘z majburiyati talablarini bajargan holda, jamiyat oldidagi ma’lum ma’naviy majburiyatlarning tashuvchisi sifatida harakat qiladi, ularni biladi va o‘z faoliyatida amalga oshiradi. Burch turkumida imperativ motiv kuchli. Burch nafaqat g‘oyaning o‘zini aniq shakllantiradi, balki unga imperativ xususiyat ham beradi, uni amalga oshirishga chaqiradi, talab qiladi. Vazifador bo‘lish nafaqat uning mohiyatini, talablarini bilish, balki amalda ana shu talablarga amal qilishni ham anglatadi.

Fe’li kollokatsiyalar – birinchi ma’nosi ya’ni axloqiy yoki qonuniy jihatdan to‘g‘ri bo‘lgani uchun qilish kerak bo‘lgan majburiyat.

have a duty to do something - *biror narsa qilish majburiyatiga ega*.

Parents have a duty to make sure that their children receive an education. *Ota-onalar farzandlarining ta’lim olishini ta’minlashga majburdirlar*.

do your duty – *o‘z vazifangizni bajaring*

I felt I had done my duty by voting. *Men ovoz berish orqali o‘z burchimni bajarganimni his qildim*.

fulfill your duty- *burchingizni bajaring*

The school has failed to fulfil its legal duty towards students. *Maktab o‘quvchilar oldidagi qonuniy burchini bajara olmadi*. Ushbu jumla metonimik ma’no asosiga qurilgan bo‘lib, maktab leksemasi orqali maktab jamoasi (pedagogik jamoa) nazarda tutilgan.

have/owe a duty to somebody- *burchi bor kimgadir qarzli*

A tenant owes a duty to the landlord to keep the house in reasonable condition. *Ijarachi uy egasiga uyni maqbul holatda saqlash majburiyatini oladi*.

fail in your duty (not do something that you should do) – *o‘z burchini bajara olmaslik* (qilishingiz kerak bo‘lgan narsani qilmang). I would be failing in my duty if I didn't warn you of the dangers. *Agar sizni xavf-xatarlardan ogohlantirmaganimda, men o‘z burchimni bajarmagan bo‘lardim.*

Sifatli kollokatsiyalar

a moral duty- *axloqiy burch*

She felt it was her moral duty to treat everyone equally. *U hammaga teng munosabatda bo‘lishni o‘zining axloqiy burchi deb bildi.*

a legal duty – *qonuniy burch*

Employers have a legal duty to ensure the safety of their workforce. *Ish beruvchilar o‘z ishchi kuchi xavfsizligini ta‘minlash uchun qonuniy majburiyatlarga ega.*

a statutory duty (required by law) - *qonun bilan belgilangan majburiyat* (qonun tomonidan talab qilinadi)

Local authorities have a statutory duty to ensure that parks are clean. *Mahalliy hokimiyatlar bog‘larning toza bo‘lishini ta‘minlash uchun qonuniy majburiyatga ega.*

a public duty (relating to the people of a country)-*jamoat burchi* (mamlakat xalqiga taalluqli)

The media has a public duty to report the truth. *Ommaviy axborot vositalari haqiqatni xabar qilish uchun jamoat oldila burchli.*

a civic duty (done because you live in a place)-*fuqorolik burchi* (*siz bir joyda yashayotganingiz uchun bajarilgan*)

It is your civic duty to vote. *Ovoz berish sizning fuqarolik burchingizdir.*

Iboralarda

a sense of duty- *burch hissi*

He was caring for his parents out of a sense of duty rather than love. *U otanasiga muhabbatdan ko‘ra burch tuyg‘usi bilan g‘amxo‘rlik qilardi.*

be duty-bound to do something *formal* (have a duty to do something)- *rasmiy biror narsa qilish majburiyatiga ega bo‘lmoq* (biror narsa qilish majburiyatiga ega bo‘lmoq)

Soldiers are here to do a job and are duty-bound to complete it. *Askarlar ishni bajarish uchun bu erga kelishadi va uni bajarish majburiyatini oladilar.*

Burch konsepti lisoniy voqelanishining leksik-semantik va milliy-madaniy jihatlardagi universal va farqli jihatlarni aniqlash orqali uning lingvomadaniy mazmunini yoritish nafaqat tilshunoslik nuqtai nazaridan, balki o‘zbek xalqining umummilliy va madaniyatlararo muloqot etikasiga oid tushunchalarni takomillashtirish, o‘rganilayotgan konsept bilan bog‘liq lisoniy birliklarni tarjima qilish amaliyotini rivojlantirish mumkinligi ham aniqlandi.

